

ETHNO-CULTURAL PROCESSES AND MIGRATIONS IN BRONZE AGE SOUTH CENTRAL ASIA

Orzubek O'ralov

O'zMU tarix fakulteti tarix yo'nalishi 2-kurs talabasi

Abstract; *This article analyzes ethnocultural processes and migrations in South Central Asia during the Bronze Age. Based on the archaeological data of the region, the article highlights the social, cultural and economic effects of inter-tribal trade, wars and migrations. Cultural exchanges between ethno-cultures, the emergence of new ethnic groups and changes in social structures are analyzed. The studied processes and migrations contribute to a deeper understanding of cultural diversity and social relations in Bronze Age South Central Asia. .*

Key words: *Bronze Age, migration, ethnocultural processes, DNA analysis, Namazgah (NMZ) ethnic group BMAC (Bactriya-Marghiana Archaeological Center)*

ЭТНОКУЛЬТУРНЫЕ ПРОЦЕССЫ И МИГРАЦИИ В БРОНЗОВОМ ВЕКЕ ЮЖНОЙ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Абстрактный: *В данной статье анализируются этнокультурные процессы и миграции в Южной Центральной Азии в эпоху бронзы. На основе археологических данных региона в статье освещаются социальные, культурные и экономические последствия межплеменной торговли, войн и миграций. Анализируются культурные обмены между этнокультурами, появление новых этносов и изменения социальных структур. Изученные процессы и миграции способствуют более глубокому пониманию культурного разнообразия и социальных отношений в Южной Центральной Азии бронзового века. .*

Ключевые слова. *Бронзовый век, миграция, этнокультурные процессы, анализ ДНК, Намазгах (НМЗ) этнос БМАК (Археологический центр Бактрия-Маргиёна)*

BRONZA DAVRI JANUBIY O'RTA OSIYODAGI ETNOMADANIY JARAYONLAR VA MIGRATSIYALAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bronza davrida O'rta Osiyo janubidagi etnomadaniy jarayonlar va migratsiyalar, arxeologik ma'lumotlar asosida qabilalar o'rtasidagi savdo-sotiq, urushlar hamda migratsiyalarning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy ta'sirlari, Etnomadaniyatlar o'rtasidagi madaniy almashinuv, yangi etnik guruhlarining paydo bo'lishi, ijtimoiy o'zgarishlar tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Bronza davri , migratsiya, etnomadaniy jarayonlar, DNK tahlili, Nomozgohtepa, etnik qatlam, BMAK.*

KIRISH

Bronza davri O'rta Osiyo tarixida muhim davr bo'lib, mazkur davrga kelib O'rta Osiyo hududidamulkiy tabaqalanish, xo'jalik taraqqiyoti va mehnat taqsimoti yuzaga kelgan. Shuningdek, bronza davri O'rta Osiyoda ko'chmanchi va o'troq aholining assimillatsiyasi, boshqa mintaqalardan aholi migratsiyasi natijasi etnomadaniy jarayonlarning boshlanishi bilan ham dolzarb sanaladi. Bronza davri O'rta Osiyoda shartli ravishda ilk sivilizatsiyaning shakllanish jarayoni boshlanish davri ham sanaladi.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur davr etnomadaniy jarayonlari Sovet davrida ham sovet davridan keyin ham yaxshi o'rganilgan. Janubiy O'zbekiston jumladan Sopolli madaniyatini o'rganishda T.Shirinov, A.Asqarovlar talay tadqiqotlar olib borgan bo'lsa, mazkur davr arxeologiyasining tarixshunosligi bilan M.Jo'raqulov va N.A.Avanesova⁵ larning tadqiqoti muhim o'rin tutadi.

Mustaqillik yillarida bronza davri madaniyatlarini o'rganish bo'yicha A.Sagdullayev⁶, A.Asqarov⁷, Sh.Shaydullayevlarning⁸ xizmati katta. Ayniqsa Sh.Shaydullayevning Jarqo'ton xarobalari va Sopolli madaniyatiga doir ideografik belgilarini o'rganilishi va uni qadimgi bitik sifatida ko'tarishi muhim ahamiyatga molikdir

Tahlil va natijalar. Bronza davrining boshlanish markazi Mesopotamiya tekisliklariga to'g'ri kelib mil.avv IV mingyillikdayoq bronzadan foydalana boshlaganligini ko'rishimiz mumkin. Mesopotamiyada shakllangan Shumer va Akkad sivilizatsiyalarida bronza buyumlar topilganligi fikrimizning isboti sanaladi.

Yaqin Sharqda shakllangan bronza davri madaniyatlari asta-sekin boshqa hududlarga ham yoyila boshlaydi. Yevroosiyoning o'rta va janubiy hududlariga bronza davri mil.avv. III – II mingyilliklariga to'g'ri kelsa , Yevrosiyoning chekka shimoliy va g'arbiy o'lkalariga nisbatan kechroq, mil.avv I mingyillikda kirib kelgan⁹. Bronza davrining qadimgi tarixi haqida dastlabki umumiy manzaralarni Yaqin Sharq mintaqasidagi Suziana yoki Suza (Eron), Troya (Kichik Osiyo) madaniyatlaridan bilishimiz mumkin¹⁰. Mazkur madaniyatlarning o'rganilishi natijasida bronza davri odamlarining xo'jaligi va turmush tarzi haqida ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. Mazkur davrga kelib Yaqin Sharq mintaqasida davlatchilik institutlarining to'liq shakllanganligi, yozuv va qonunchilik tizimi mavjudligi bilan ham qolgan davrlardan ajralib turadi. Nima bo'lganda ham bronza davri insoniyat tarixida ibtidoiy kishilik jamiyatidan mulkchilik va davlat institutlarining shakllanish bosqichi sifatida kirgan. O'rta Osiyoning janubiy hududlariga bronza davri ham aynan Mesopotamiyadan kirib kelganligi haqida taxminlar mavjud. Va ushbu taxminlar o'z aksini topmoqda.

⁵ Джуракулов.М.Д., Аванесова.Н.А. Историография эпохи бронзы Средней Азии. Самарканд – 1983. С 7

⁶ Sagdullayev.A. O'zbekiston tarixi. Toshkent : Fan,2018. 77 b

⁷ Асқаров. А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. Тошкент, Ўзбекистон, 2019. Б 660

⁸ Шайдуллаев. Ш. Б. Ўзбекистон ҳудудида давлатчилик шакллари пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари. (Бактрия мисолида). Тарих фанлари доктори диссертацияси. Самарканд, 2009. Б 350

⁹ Ibragimov.R. Arxeologiya. Toshkent: Fan, 2022. 98 b

¹⁰ O'sha asar. 98 – 99 b

Turkmaniston hududida olib borilgan tekshiruvlarda bronza davri madaniyatlarida yirik patriarxal oila yashaydigan uylar va zinapoyali ibodatxonalar ya'ni zikkuratlarining qoldiqlari aniqlanishi, Janubiy Turkmanistonga bugungi Eron hududidan aholining ko'chib kelganligini ko'rsatadi¹¹. Nomozgoh madaniyatining bronza davriga taaluqli bosqichlarini tadqiq etish jarayonida Janubiy Turkmaniston aholisi va Mesopotamiya aholisi o'rtasida madaniy aloqlar kuchli bo'lganligidan dalolat beradi. V.M.Massonning olib borgan qazishma ishlaridan topilgan xo'jalik buyumlar va "ho'kiz kulti"ga oid ashyoviy buyumlar ham ushbu nazariyani ham to'laqonli isbotlaydi¹². Shu bilan birga Janubiy hududlarga shimoldan Andronovo madaniyati kirib keladi. Bu moddiy madaniyani to'liqroq tushunish uchun Buxoro va Xorazm vohasida joylashgan Tozabog'yob madaniyati yorqin misol bo'ladi¹³. Bronza davri etnomadaniy rivojlanishida muhim o'rin tutgan yana bir yirik madaniyat bu Sopolli madaniyatidir. Sopolli madaniyati NMZ madaniyatidan farq qilgan holda Mesopotamiya sivilizatsiyasiga o'xshamaydi va bu yerdagi moddiy hayot, asosan Hind sivilizatsiyasi bilan aloqalari borligi bilan izohlanadi. Biroq Sopolli madaniyatining ayrim moddiy ashyolaridan biz bu yerdagi aholining Yaqin Sharq mintaqasi bilan ham aloqadorligi bor degan xulosaga kelamiz. Bunga sabab sifatida Murg'ob vohasida shakllangan yangi etnik qatlamni ko'rsatishimiz mumkin.

Murg'ob vohasida qadimdan bir vaqtlar Geoksur madaniyatidan kirib kelgan eneolit davri insonlarining izi yo'qola boshlaydi. Ushbu eski etnik qatlam ustini yangi etnik qatlam egallay boshlaganligi haqida V.I.Sariandining kuzatuvlari orqali bilishimiz mumkin. Olim qadimgi etnik qatlam ustidan kelgan yangi etnik qatlam bugungi Shimoliy Suriya va Anatoliya mintaqasidan Eron hududi orqali Murg'ob vohasi hududiga ko'chib kelgan degan xulosaga keladi¹⁴. Murg'ob vohasi aholisining bir qismi migratsiya hisobiga Baqtriya hududiga kirib keladi. Sopolli madaniyatining asosiy qismi o'troq dehqonlar bo'lgan. Hududda dehqonchilik, bilan bir qatorda chorvachilik rivojlanganligini ko'ramiz. Aholining asosiy qismi qo'y, echki, qoramol va cho'chqa boqqanligini, ayrim qabrlarda tuyoqli hayvonlarning suyaklari aniqlanishiga qarab xulosa qilish mumkin¹⁵.

Hududning etnomadaniy xususiyatni ko'rib chiqadigan bo'lsak Murg'ob vohasidan tortib Vaxsh vohasi hududlariga qadar cho'zilgan madaniyatlarni biz umumiy jihatdan BMAK (Baqtriya-Marg'iyona arxeologik kompleksi), yoki Oks sivilizatsiya sifatida qaraymiz. Sababi ayni mana shu hududlardagi aholining antropologik qiyofasi, moddiy madaniyati va diniy qarashlari ham juda o'xshash bo'lgan. Murg'ob vohasida olib borilgan keng ko'lamli tekshiruv ishlari Murg'ob aholisining asosiy qismi olovga sig'inuvchilar va muqaddas ichimlikka sig'inuvchilar sanalgan. Bu esa Sopolli madaniyati aholisi bilan umumiy birlikka ega ekanligini ko'rsatadi. Oks sivilizatsiyasi aholisining etnik kelib chiqish jarayoni haqida aniqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun DNK tekshiruvlari xulosasi ham yordam beradi. Bronza davri

¹¹ Ibragimov.R. Arxeologiya. Toshkent: Fan, 2022. 105 b

¹² Dr.Nikolaus Boroffka. Bronze Age Archaeology in Turkmenistan. \ \ <https://www.newscentralasia.net> 25.10.2024

¹³ Джуракулов.М.Д., Аванесова.Н.А. Истириография эпохи бронзы Средней Азии. Самарканд – 1983. С 7

¹⁴ Ibragimov.R. Arxeologiya. Toshkent: Fan, 2022. 108 b

¹⁵ Асқаров. А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. Тошкент, Ўзбекистон, 2019. 145 б

madaniyatlari o'rtasidagi madaniy aloqalar haqida ham ko'proq ma'lumotlarni ham DNK tahlili orqali olamiz. Masalan, o'rta bronza davriga oid Ulug'depedan topilgan suyak qoldiqlari DNK tahlillari uning Gonurdepa, Jarqo'ton, Bo'ston va Soppolitepalik odamlar tomonidan ifodalangan genetik BMAK madaniyatiga tegishli ekanligini ko'rsatadi. Bu Ulug'depaning Oks tsivilizatsiyasiga aholi darajasida integratsiyalashuvini kuchaytiradi. Ulug'depedagi erta va o'rta bronza davri shaxslarining stronsiy va kislorod izotoplari tahlillari xalkolit davri oxirlarida ularning ajoyib harakatchan ekanligini ko'rsatdi, bu esa BMAK hududi bilan aloqlaridan keyin kamayganligini ko'rsatadi. Oks sivilizatsiyasining boshlanishida izotopik natijalar bilan aniqlangan ushbu hududlararo migratsiyalar, albatta, BMAK manzilgohlari o'rtasida kuzatilgan genetik bir xillikka hissa qo'shgan¹⁶. Boshqa tomondan, Jarqo'ton, Gonurdepa, Bo'ston va Soppolitepa bronza davri populyatsiyalari bo'yicha oldingi genetik tahlillar shuni ko'rsatdiki, BMAK genetik klasteriga qo'shimcha ravishda, Yevroosiyaning turli qismlaridan birinchi yoki ikkinchi avlod ko'chmanchilari mavjud bo'lgan. Qizig'i shundaki, bu chet elliklar ikki xil populyatsiyaga to'g'ri keladi: biri Shimoliy Markaziy Osiyodagi cho'l aholisini tashkil etuvchi dashtlik Andronovo madaniyati aholisi bo'lib ular qulay sharoit izlab janubga siljigan bo'lishi mumkin¹⁷. Ikkinchisi esa Hind daryosi bo'yidagi qadimgi dravid aholiga tegishli. Sopoli madaniyatining Hind vodiysi bilan aloqalari mavjudligini bizga Janubiy Baqtriyadagi Sho'rto'qay manzilgohidan ma'lum¹⁸.

Janubiy O'rta Osiyodagi etnik munosabatlarda hind sivilizatsiyasining ham o'rni kattadir Xulosa. Bronza davrida Janubiy O'rta Osiyodagi etnomadaniy jarayonlar va migratsiyalar o'zaro bog'liq jarayonlar bo'lib, mintaqadagi ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarga katta ta'sir ko'rsatgan. Ushbu davrda qabilalar o'rtasida olib borilgan savdo-sotiq, urushlar va migratsiyalar yangi madaniy aloqalar va turlar shakllanishiga olib kelgan. Arxeologik qazishmalar natijalari shuni ko'rsatadiki, bu jarayonlar yerga joylashish, resurslarga egalik qilish va ijtimoiy tuzilmalarning o'zgarishiga sabab bo'lgan.

Janubiy O'rta Osiyoda yashovchi etnomadaniyatlar o'zlarining turli xil madaniyatlari, an'analari va urf-odatlarini bir-biriga o'zgartirib, yangi etnik va madaniy birlashmalarni yaratgan. Bunday jarayonlar nafaqat mintaqaning ichki ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga, balki uning atrofidagi hududlar bilan o'zaro munosabatlariga ham ta'sir ko'rsatgan.

¹⁶ Perle Guarino-Vignon. Genetic analysis of a bronze age individual from Ulug-depe(Turkmenistan)\\ <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/> 25.10.2024

¹⁷ Perle Guarino-Vignon. Genetic analysis of a bronze age individual from Ulug-depe(Turkmenistan)\\ <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/> 25.10.2024

¹⁸ Sagdullayev.A. O'zbekiston tarixi.Toshkent : Fan, 2018. 77 b